

# Test javoblari

Hurmatli Abituriyentlar,

## KIRISH IMTIXONLARINI MUVAFFAQIYATLI TOPSHIRGANINGIZ BILAN TABRIKLAYMIZ!

2020-2021 o'quv yili uchun qabul

wpDataTable with provided ID not found!

***Ushbu rasmiy xabarga diqqat bilan e'tibor berishingizni iltimos qilamiz!***

7-iyul kuni bo'lib o'tgan kirish imtihonining natijalariga ko'ra, natijalar 4 toifaga bo'lindi:

### **1-toifa:**

0.00 ballga teng va undan kam ballni qo'lga kiritgan Abituriyentlar Tayyorlov yili (Birinchi Kurs)dan o'qishga qabul qilinadilar. Ushbu Abituriyentlarga 1 Akademik O'quv Yili uchun (faqat birinchi yil) to'lov pul miqdori 42 750 000 (qirq ikki million yetti yuz ellik ming) so'mni tashkil etadi. Ushbu toifaga kiruvchi abiturientlar o'quv yili ohiriga qadar IELTS (minimum 5.5 ball) olib kelishlari shart.

### **2-toifa:**

0.00 dan (0.00 kirmaydi) 50.00 gacha ball to'plaganlar abiturientlar, IELTS sertifikatini mavjudligidan qat'iy nazar, Tayyorgarlik yiliga (= Birinchi kurs) qabul qilinadilar. Ushbu Abituriyentlarga 1 Akademik O'quv Yili uchun to'lov pul miqdori 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi. Ushbu toifadagi abiturientlar o'quv yili ohiriga qadar IELTS sertifikatini (minimum 5.5 ball) olib kelishlari shart.

### **3-toifa:**

50.00 dan yuqori ball to'plaganlar, **12 yillik oliy ta'limgacha bo'lgan ta'limga ega\*\*** va IELTS sertifikatini (minimum 5.5) bo'lmagan abituriyentlar to'g'ridan-to'g'ri ikkinchi kursga qabul qilinadi (tayyorgarlik yilini o'tkazib yuborishadi), ular 2020 yil oxiriga qadar (ya'ni dekabrgacha)\* IELTS ingliz tili sertifikatini (kamida 5.5) taqdim etishlari shart ekanligini inobatga olgan holda. Ushbu Abituriyentlarga 1 Akademik O'quv Yili uchun to'lov pul miqdori 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi.

*\*Agar abituriyent o'z vaqtida IELTS sertifikatini taqdim etmasa, u avtomatik ravishda (tayyorlov yiliga) 1-kursga o'tadi.*

#### **4-toifa:**

50.00 dan yuqori ball to'plaganlar, **12 yillik oliy ta'limgacha bo'lgan ta'limga ega\*\*** va IELTS sertifikatini (minimum 5.5) bo'lgan abituriyentlar to'g'ridan-to'g'ri ikkinchi kursga qabul qilinadi (tayyorgarlik yilini o'tkazib yuborishadi). Ushbu Abituriyentlarga 1 Akademik O'quv Yili uchun to'lov pul miqdori 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi.

*\*\*Vazirlar Mahkamasining 132-sonli qaroriga muvofiq, oliy ta'limgacha 11 yillik ta'limni tugatgan (9 + 2) abituriyentlar, maktabgacha ta'limning ixtisoslashtirilgan o'quv guruhlarida bir yil majburiy bo'lishilari shart. Ikkinchi kursga qabul qilinish uchun ma'lumotnoma taqdim etishlari shart.*

#### **Abituriyentlar uchun noyob imkoniyat:**

1-avgustgacha shartnomaning **TO'LIQ MIQDORINI (100%) BIR MARTADA** to'lagan abituriyentlarga kontrakt miqdorining **10%** miqdorida chegirma beriladi. Bu imkoniyat barcha toifalarga tegishli.

3 va 4 toifadagi abituriyentlar, universitet bilan shartnoma tuzgandan so'ng, universitet va hamkorlari tomonidan ajratilgan GRANTlar (ushbu o'quv yili uchun), kontrakt summasining 25% dan 100% miqdorigacha qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Nomzodlarning tanlanishi test sinovlari natijalariga qarab belgilanadi. Belgilangan tanlovdan so'ng, Grantlar suhbat orqali o'tkaziladi. Qabulning ushbu bosqichida 30 ta grant joylari mavjud. Talaba grantlari har yili, talabalarning o'qish jarayonida erishgan yutuqlariga qarab ko'rib chiqiladi.

Shartnomalarni rasmiylashtirish 2020 yil 12 iyul soat 09:00 dan boshlab amalga oshiriladi. **COVID-19 pandemiyasi tufayli, shartnomalar elektron shaklda elektron pochta orqali ham chiqariladi.**

**Qabul komissiyasining ishi bo'yicha mas'ul shaxslar:**

Rektor – Inoyatkhodjaev Jamshid Shuxratullaevich

Dekan – Abdullaev Farhod Baxromovich

Turin politexnika universiteti ma'muriyati ushbu ro'yxatdagilardan tashqari shaxslarning faoliyati uchun javobgar emas.

Kerakli hujjatlar ro'yxati:

**Abituriyent PASPORTI;**

**Abituriyent ota-onasining passport nusxalari.**

Har qanday savollar uchun 71 246-80-51

71 246-80-52

71 246-63-48 raqamlariga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.

E-mail manzil: [admission@new.polito.uz](mailto:admission@new.polito.uz)